

SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2020- yil 1- may holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 25-sentabrdagi “Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 274-son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020- yil 1- may holatiga ko'ra, (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

21 988

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

21 314

Yangi tashkil etilgan korxonalar

2 373

(2020- yil yanvar-aprel oylarida)

Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

8 391



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

2 540



Oilaviy korxonona

159



Unitar korxonona

6 845



Xususiy korxonona

26




Aksiyadorlik jamiyati

257




Boshqalar

mas'uliyati cheklangan jamiyat
birlik



xususiy korxonona
birlik




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani, ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidor javobgar bo'ladilar.


Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1-may holatiga ko'ra)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-aprel oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-aprel oylarida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2020- yil yanvar-aprel oylarida, umumiy sonidagi ulushi, % da)



2020- yil yanvar-aprel oylarida 2 373 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 765 ta, xususiy korxonalar – 417 ta, oilaviy korxonalar – 1 066 ta, muassasalar – 32 ta va boshqalar – 93 tani tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi

(1- may holatiga ko'ra, % da)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- may holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 2 981 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 129,6 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 169,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 94,6 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 141,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 3,4 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 185,7 % ga (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish – 102,1 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,6 %) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- may holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 420 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,8 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu – bino va inshootlar qurishda – o'tgan yilga nisbatan 116,1 % ga (jami qurilishdagi ulushi 66,3 %), fuqarolik obyektlarini qurish – 154,6 % ga (jami qurilishdagi ulushi 13,2 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari – 163,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 20,5 %) o'sishidir.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

2020- yil 1- may holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 5 931 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 132,4 % ga oshdi. Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili – avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan – 138,6 % ga (jami savdodagi ulushi 64,8 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan – 114,9 % ga (jami savdodagi ulushi 26,8 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash o'tgan yilga nisbatan – 146,0 % ga (jami savdodagi ulushi 8,4 %) o'sishidir.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat
325 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash
9 ta



Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
10 ta

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



77

yashash bo'yicha xizmatlar




1 403

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2020- yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 480 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,2 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 121,6 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 94,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning – 135,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 5,2 %) o'sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- may holatiga ko'ra, axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 257 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 119,5 % ga oshdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili – kompyuter dasturlashtirish xizmatlari, o'tgan yilga nisbatan – 124,4 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 39,7 %), aloqa xizmatlarining – 118,9 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 24,5 %), noshirlik xizmatlari, o'tgan yilga nisbatan – 116,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 16,7 %), axborot sohasidagi xizmatlar, o'tgan yilga nisbatan – 118,2 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 15,2 %), kino- videofilmlar, televidion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, o'tgan yilga nisbatan – o'zgarishsiz (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,1 %), dasturlar tuzish va teleradio eshittirishlar bo'yicha xizmatlar, – o'tgan yilga nisbatan – o'zgarishsiz (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 0,8 %) o'sishidir.


Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019- yil 10- yanvardagi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parkini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 17- son qaroriga muvofiq **IT-PARK** ishga tushdi.

IT-PARK maqsadi:

-yosh iqtidor egalari g'oyalarini istiqbolli biznes loyihalariga aylantirishga ko'mak beradigan maskan;

-yuridik shaxslarni uning rezidentlari sifatida ro'yxatdan o'tkazish, soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash tartibini belgilash, "startup-loyihalarni" har tomonlama, shu jumladan, venchur moliyalashtirish asosida qo'llab-quvvatlash.

Oilaviy korxonalar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yil 1- may holatiga ko'ra, 2 540 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 617 taga yoki 2,8 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 443 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 535 taga yoki 2,7 martaga oshganligini ko'rish mumkin.


2020-yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 066 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 885 taga yoki 5,9 % martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yil 1- may holatiga ko'ra, 8 391 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 820 taga yoki 127,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 8 187 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 695 taga yoki 126,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 765 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 227 taga yoki 0,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- may holatiga ko'ra, 394 tani tashkil etib, ulardan 379 tasi yoki 96,2 %i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 144 taga yoki 157,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar-aprel oylarida viloyatimizda 35 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-aprel oylarida, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	59	59	79	248	379
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	7	8	16	69	94
Sanoat	32	33	35	65	102
Qurilish	2	1	2	12	20
Savdo	4	5	14	63	112
Tashish va saqlash	5	5	4	8	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	2	1	11	19
Axborot va aloqa	2	1	1	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	x	x	1	3	4
Boshqa turlar	4	4	5	16	19


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	2016- yil	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	3 178	4 118	5 041	6 492	8 187
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	215	307	513	663	929
Sanoat	518	625	789	1 055	1 268
Qurilish	530	680	826	1 048	1 450
Savdo	1 006	1 340	1 508	2 009	2 555
Tashish va saqlash	364	458	502	549	608
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	106	159	188	249	330
Axborot va aloqa	44	70	72	86	105
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	24	31	53	77	95
Boshqa turlar	371	448	590	756	847

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni (1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil
Jami	550	695	908	2 443
<i>shu jumladan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	73	90	94	532
Sanoat	149	168	234	623
Qurilish	7	8	9	37
Savdo	101	152	214	678
Tashish va saqlash	9	13	10	21
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	186	231	299	440
Axborot va aloqa	x	2	1	13
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	4	5	6
Boshqa turlar	22	27	42	93

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni (2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni (2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Surxondaryo viloyati	379	126	253
Termiz sh.	181	31	150
tumanlar:			
Oltinsoy	5	4	1
Angor	19	5	14
Bandixon	x	x	x
Boysun	6	5	1
Muzrabot	13	5	8
Denov	15	7	8
Jarqo'rg'on	10	6	4
Qumqo'rg'on	13	7	6
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	14	10	4
Termiz	38	14	24
Uzun	30	17	13
Sherobod	13	6	7
Sho'rchi	12	8	4

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Termiz shahrida 181 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 47,8 %), Termiz 38 ta (10,0 %), Uzun 30 ta (7,9 %), Angor 19 ta (5,0 %), Denov 15 ta (4,0 %), Sariosiyo 14 ta (3,7 %) hamda Muzrabot, Qumqo'rg'on va Sherobod tumanlarida 13 tadan (3,4 % dan) tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- may holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (19,0 %), Denov (11,8 %), Jarqo'rg'on (7,9 %), Qumqo'rg'on (7,2 %), Sho'rchi (6,9 %), Termiz (6,9 %), Sherobod (5,9 %), Uzun (5,4 %), Sariosiyo (5,3 %), Qiziriq (5,0 %), Boysun (4,7 %), Angor (4,7 %), Muzrabot (4,5 %) Oltinsoy (4,0 %) va Bandixon tumanlarida (0,8 %) hissalari to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Qumqo'rg'on (11,9 %), Termiz sh. (11,3 %), Denov (10,4 %), Sho'rchi (10,1 %), Jarqo'rg'on (8,6 %), Sherobod (6,0 %), Termiz (5,5 %), Sariosiyo (5,3 %), Boysun (5,2 %), Uzun (5,1 %), Qiziriq (4,8 %), Oltinsoy (4,5 %), Muzrabot (4,0 %), Bandixon (3,8 %) va Angor (3,5 %) ulushiga ega.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning hududlar kesimida soni

(2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2020- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



2020- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (26,3 %), Denov (9,7 %), Termiz (9,2 %), Jarqo'rg'on (7,1 %), Sherobod (5,8 %), Boysun (5,8 %), Qumqo'rg'on (5,6 %), Qiziriq (5,5 %), Sho'rchi (5,3 %), Muzrabot (4,4 %), Sariosiyo (4,2 %), Angor (4,1 %), Uzun (3,6 %), Oltinsoy (2,5 %) va Bandixon (0,9 %) ulushiga ega.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi


(2020- yil 1- may holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - **xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish** hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatimizdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2020- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)




2020- yil yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Qumqo'rg'on (15,4 %), Denov (9,9 %), Jarqo'rg'on (9,3 %), Sho'rchi (8,8 %), Boysun (8,3 %), Sherobod (8,1 %), Uzun (6,3 %), Sariosiyo (6,2 %), Oltinsoy (6,1 %), Termiz (5,3 %), Qiziriq (4,4 %), Muzrabot (3,4 %), Termiz sh. (3,1 %), Angor (2,9 %) va Bandixon (2,5 %) ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2020- yil yanvar-aprel oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.